

MILLIY TARBIYANING PEDAGOGIK –PSIXOLOGIK ASOSLARI.

Madiyeva Charos Dovutovna

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Katta o'qituvchisi.

Sotiboldiyeva Lola Qaxramon qizi

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Tarix va filologiya fakulteti

Tarix yo'nalishi talabasi

Аннотация: В статье анализируется понятие национального образования, его содержание, цели и особенности с педагогико-психологической точки зрения. Подчеркивается роль образования, основанного на национальных ценностях, в развитии подрастающего поколения.

Ключевые слова: национальное воспитание, педагогика, психология, ценности, личность, семья, школа, социальная среда.

Annotation: This article analyzes the concept of national education, its content, purpose and specific features from a pedagogical and psychological perspective. The role of education based on national values in the development of the younger generation is highlighted.

Keywords: national education, pedagogy, psychology, values, personality, family, school, social environment.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, komil inson qilib tarbiyalash milliy ta'lim siyosatining eng ustuvor vazifalaridan biridir. Ayniqsa, milliy tarbiya orqali yoshlarda vatanparvarlik, o'zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat tuyg'ularini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Milliy tarbiya - bu xalqning tarixiy, madaniy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlariga asoslangan holda, shaxsni har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy

faoliyatdir. Bu jarayonda oilaviy muhit, maktab va jamiyat muhim omil hisoblanadi. Milliy tarbiya nafaqat pedagogik, balki psixologik jarayon hamdir.

Milliy istiqlol O'zbekiston maktablarida ta'lim va tarbiyani takomillashtirish va buning uchun avvalo bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarliklarini takomillashtirish zaruriyatini kun tartibiga qo'ydi. Ushbu ijtimoiy buyurtmani bajarish universitet va pedagogika institutlarida o'quv- tarbiyaviy jarayonni oqilona tashkil qilishni, bo'lajak o'qituvchilarni milliy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning samarali shakl, uslub va vositalarini izlab topishni; talabalarni milliy istiqlolning pedagogik ehtiyojlarini to'g'ri talqin qilishga o'rgatishni; milliy tarbiya nazariyasi va uslubiyati haqidagi ilmiy bilimlar bilan qurollantirishni; milliy tarbiyachilik ko'nikma, malakalarni maxsus shakllantirishni taqozo qildi. Boshqa tomondan, bu muammo respublikamiz pedagog-olimlarining maqolalarida, munozaralarida dolzarb mavzuga aylana bordi. O'zbekiston uzoq vaqt boshqa milliy pedagogikalar tarixini o'rganish urf bo'lganligida va boshqalarda ekanligi chuqur asoslab berildi bo'lajak o'qituvchilarni milliy tarbiyaning nazariy, uslubiy asoslari bilan qurollantirish; talabalarni nazariy xulosalar chiqarish; pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish; pedagogik sabab va oqibatlar orasidagi bog'lanishlarni kuzatish; pedagogik ta'sir mantiqini egallash; pedagogik diagnostika, texnologiya, prognostika uslublarini qo'llash; o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga o'rgatish kabi pedagogik-psixologik vazifalarni hal qilish lozimdir. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik-psixologik tayyorlash jarayoni pedagogika institutlari va universitetlarida "O'qituvchilik kasbiga kirish" kursini o'rganishdan boshlanadi. Mazkur kurs talabalarni ilk mashg'ulotlardan boshlab o'qituvchi-tarbiyachilik kasbi haqida, unga milliy mustaqillik sharoitida qo'yilayotgan talablar, milliy istiqlolni mustahkamlashda maktabning, yosh avlodlarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashning ahamiyati haqida bilimlar beradi. Bu orqali talabalarda pedagogik, psixologik, ma'naviy, g'oyaviy, mafkuraviy dunyoqarashni shakllantirishning ilk bosqichidir. "O'qituvchilik kasbiga kirish" kursining mazmuni asosan, 1) o'qituvchilik kasbi va mustaqil O'zbekistonning o'qituvchiga qo'yayotgan

talablari; 2) bo'lajak o'qituvchilar mutaxassis sifatida faoliyat ko'rsatishi lozim bo'lgan o'quv muassasalari: gimnaziya, umumta'lim maktabi, litsey, kollej, maktab-internatlar tavsifi; 3) pedagogik ta'lim tizimi, mustaqil ishlash o'z-o'zini tarbiyalashning ahamiyati va shakllari; 4) kutubxonada ishlash, adabiyotlarni tahlil qilish, ma'ruza, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari to'g'risidagi va boshqa bilimlardan iborat. Mazkur kursning bo'lajak o'qituvchilarni milliy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash katta ahamiyatidan kelib chiqib, o'qituvchilarga tavsiyalar berildi. Jumladan: -talabalarni Sharqda o'qituvchi-ustozlarning jamiyatda egallagan yuksak mavqei bilan tanishtirish: -Sharq madaniyati, ma'naviyat, ilmning shuhratida ularning tutgan o'rmini ko'rsatish: -Al- Forobiy, Alisher Navoiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqa allomalarimizning shakllanishida o'qituvchi-ustozlarning tutgan o'rinlari ustoz-shogirdlik ananalari xaqida bilimlar berish: -Pedagogika va pedagoglarning mamlakatimizdagi milliy davlatchilik, tiklanishdagi roli: -mustaqil O'zbekiston o'qituvchisiga qo'yilayotgan talabalar, o'qituvchidan talab qilinuvchi shaxsiy va kasbiy sifatlar tizimi haqida batafsil to'xtalish: -milliy tarbiyaviy tushunchalar berish va h.k.Seminar mashg'ulotlarida odob-axloqdagi milliylik, insonlarga xos ijobiy va salbiy sifatlarning pedagogik tabiatini asoslab, hayotiy pedagogik vaziyatlar hosil qilib, talabalarining o'z kasblariga qiziqishlari oshirildi, ularni maktab va o'quvchilar bilan uchrashuvga tayyorlab borildi. "Pedagogikaning umumiy asoslari" bo'limining "Pedagogikaning predmeti va ilmiy-tadqiqot usullari" mavzusini o'rganishda talabalarga pedagogikaning fan sifatidagi ob'ekti -inson, predmeti -tarbiya ekanligiga alohida urg'u berildi. Insonning turfa xususiyatlaridan biri - uning u yoki bu millat vakili ekanligi; sovet pedagogikasidagi jiddiy nazariy kamchilik ham bartaraf qilindi - pedagogikaning ob'ekti masalasiga oydinlik kiritildi. Pedagogikaning predmetini sharhlashda ham ob'ekt - inson va tarbiyaning milliy xususiyati nazariy mantiqiy asoslandi. Bu g'oya pedagogikaning ilmiy-tadqiqot uslublari: shaxs va uning kamoloti; pedagogik jarayonning qonuniyatlari; uzluksiz ta'lim tizimi kabi mavzularda ham rivojlantirildi. Jumladan, o'quvchini o'rganishda u o'sgan mahalliy, milliy muhitga e'tibor berish; milliy qadriyatlarga munosabati va

ularni egallaganlik darajasini qayd qilish; o'quvchida boshqa sifatlar bilan bir qatorda milliy g'urur, vijdoniylik, vatanparvarlik, milliy odob, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy onglilikning shakllanganligini o'rganishning ahamiyatiga urg'u berib o'tildi Masalan, tarbiyaning xalqchilligi haqidagi printsipli atroflicha ochib berildi. "Chet el pedagogikasining ta'lim va tarbiya sohasidagi asosiy yo'nalishlari va tizimiga qisqacha obzor" mavzusini o'rganish samaradorligini oshirish uchun qiyosiy-pedagogik yondashuv usuliga e'tibor ko'chaytirildi. Ushbu masala bizning "Xalq ta'limi"(1993yil 8-9son)da e'lon qilingan "Milliy tarbiya yo'riqnomasi: G'arb va Sharq tarbiyaviy tajribalari namunalarining tahlili" maqolamizda atroflicha yoritilgan."Didaktika"bo'limida "O'zbekiston maktablarida ta'limning mazmuni" maxsus mavzu qilib kiritildi. Bu orqali nafaqat tarbiya, balki ta'lim uning mazmuni ham o'z mamlakati, Davlat manfaatlari bilan belgilanishi va ayniqsa gumanitar soha bo'yicha o'quv predmetlari milliy tarbiyaviy imkoniyatlari misollar yordamida namoyish qilindi."Tarbiyaviy ishlar nazariyasi va uslubiyati" bo'limining boy milliy tarbiyaviy imkoniyatlaridan keng foydalanildi. Xususan, tarbiyaviy jarayon, uning tamoyillari, o'qituvchining tarbiyaviy ishlari tizimini o'rganish kabi masalalarni tahlil qilishda ularning juda boy imkoniyatlariga ega ekanligi namoyon qilindi. Talabalarga tarbiya natijasiga bu jarayonning "qachon", "qaerda", "kimlar bilan", "nima maqsadda" olib borilishi bevosita ta'sir qilishi va yuqoridagi savollarga javoblar asosida belgilanishi asoslandi."Birligi" kabilarning milliylikka nisbatan sun'iyliги ko'rsatildi. "Tarbiyaning hayot bilan birligi" bola shaxsiga hurmat va talab birligi", "Tarbiyaning uzviyligi, izchilligi", va boshqalarning hozirgi zamonda, O'zbekiston sharoitida qanday amalga oshirish yo'llari izohlandi. "Tarbiya va o'qituvchining pedagogik mahorati", "Tarbiyaning umumiy uslublari va pedagogik ta'sir", "O'quvchilar jamoasini shakllantirish va uning o'quvchi shaxsiga ta'siri" mavzularida milliy pedagogika uslublari, vositalari bayoniga keng o'rin ajratildi. "Mehnat tarbiyasi, kasbga yo'naltirish" mavzusida talabalar e'tibori xalqimizda har bir insonning mohiyati uning mehnatga munosabati bilan baholanganligiga; milliy hunarmandchilikda ustoz-shogirdlik, oilaviy kasbiy sulolalar an'alariga; milliy kasb-

kor, hunarlar va ularga o'rgatishning tarixiy va zamonaviy xususiyatlariga jalb qilindi. "Estetik tarbiya", "Jismoniy tarbiya" mavzularini ochib berish xalq amaliy san'ati turlari; raqqoslik, qo'shiqchilik, gilamdo'zlik, kashtachilik, zardo'zlik, me'morchilik, she'riyat bilan chambarchas bog'landi. Turli-tuman milliy o'yin-musobaqalar - kurash, quloqcho'zma, tungi va kunduzgi, fasliy o'yinlar haqida ma'lumotlar berib, o'zbek bolalarining jismoniy barkamol kishilar bo'lib yetishishlarida bu o'yinlarning tafakkuriga singdirildi. "Yoshlar tashkilotlarining tarbiyaviy ishlari. O'quvchilarning o'z-o'zlarini boshqarish" mavzusiga alohida e'tibor berildi. Chunki nafaqat O'zbekistonda, balki barcha sobiq ittifoqdosh respublikalarda pilner, komsomol tashkilotlari o'rnida qolgan bo'shliqni to'ldirish pedagogik muammoga aylangan edi. Respublikamiz maktablarida to'plangan ilg'or tajriba (Jumladan, Chirchiq shahri maktablarining amalga oshirayotgan "Vatan" harakati va boshqalar) namunalaridan foydalangan holda O'zbekiston o'quvchilar va o'smirlar uyushmasining maqsad va vazifalari milliy tarbiyaviy nuqtai-nazar bilan boyitildi. "Hozirgi zamon o'qituvchisi" mavzusini bayon qilish mustaqil O'zbekiston davlatining o'qituvchilariga qo'yayotgan istiqbolli talablari, undan kutilayotgan shaxsiy va kasbiy fazilatlar tizimi bayon qilindi. Bunda mazkur ishimizning oldingi moddasidagi "andaza"ga tayanildi. "Sifdan va maktabdan tashqari ishlar", "Maktab, oila va jamoatchilikning tarbiya sohasidagi faoliyati" mavzularini o'rganish respublika "Mahalla" jamg'armasining tarbiyaviy vazifalari, 2000 yilgacha mo'ljallangan "Meros" tadbirlar Dasturiga bog'lab amalga oshirildi. Shuningdek, ota-onaning bola tarbiyasi uchun konstitutsiyaviy javobgarliklari va buning respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan hozirgi pallada g'oyat muhimligi alohida ta'kidlandi, ijobiy va salbiy, hayotiy misollar keltirilib, qiziqarli bo'lishiga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Abdullaeva N. Pedagogik texnologiyalar va tarbiya nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
3. Xaitov E., Turaqulov N. Milliy tarbiya asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot va huquq, 2020.
4. Juraev R. Psixologiya asoslari (pedagoglar uchun). – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. Mavlonova R.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2015.
6. Avloni A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1913 (va qayta nashrlari).